

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TERGOV ORGANLARI VA ROSSIYA
FEDERATSIYASI TERGOV ORGANLARINING XUSUSIYATLARI VA O'ZIGA XOS
JIHATLARINING KONSTITUTSION ASOSLAR**

Ergashov Behruz Xurshid o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17191751>

Annotatsiya. Bugungi globallashuv zamonida huquqni muhofaza qilish organlarining salohiyati va kasbiy tajribasi har kungiga nisbatan yuqori pog'onalarda bo'lishi huquqbuzarlikka qarshi mardonavor kurashishda qo'l keladi. Ayniqsa jinoyatchilikka qarshi toqatsiz ish olib boradigan -tergov organlarining tarkibiy qismi, tuzilmalari va mehnat jarayonlarini chuqurroq o'rganish, shuningdek xorijiy mamlakatlardagi tergov organlarining faoliyatidagi tajribalarni tahlil qilish, shu bilan bir qatorda o'zlarida mavjud bo'lmagan foydali jihatlarni amaliyotga tatbiq etish tergov jarayonlarining soddalashuvi va tezlashishiga olib keladi. Xalqaro huquqning subyekti sifatida – davlatlar bir-birlari bilan o'zaro tergov sohasida, uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida konsultatsiyalar berib borishlari lozim. Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi tergov organlari va Rossiya Federatsiyasi tergov organlarining xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: tergov tushunchasi, tergov organlari, respublika, federatsiya.

Avvalo, mavzuga chuqurroq kirishdan oldin “tergov” tushunchasi va uning mazmun mohiyatiga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tergov – qonunga itoat qilgan holda ijtimoiy xavfli qilmishni aniqlash, o'rganish va ularga oid dalillarni to'plash jarayonidir. Tergov protsessining asosiy o'z oldiga qo'ygan maqsadi huquqbuzarlikni aniqlash, uning sabablari va sharoitlarini o'rganish, shuningdek, jinoyatchilarni oliy sudga tortishdir. Ushbu maqola tergov sohasida xizmat qilayotgan ikki mamlakat mutaxassislariga asosli va yakdil nazariy bilimlarni taqdim qilish, mamlakatlar qonunchilik tizimini hisobga olgan holda o'xshash va farqli jihatlari bo'yicha tergov sohasida muvofiqlashtiruvchi umumiy xulosaga kelish va bir qancha boshqa amaliy jihatlarni o'z oldida maqsad qilib qo'ygan. Nega aynan biz mazkur sohani chuqurroq o'rganishga yoki uning ustida soatlab ishlashga majburlarmiz?

Birinchidan, rivojlanayotgan asrda inson ehtiyojlar har lahza ortib boraveradi.

Natijada esa turli xildagi jinoyatlar jamiyatda sekin-asta ko'payishni boshlaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi soha mutaxassislari esa ushbu jinoyatlarni oldini olish, sodir qilingan huquqbuzarliklarni tez va sifatli ochish, jinoyatchilarni ayblarini isbotlab ularni sudga topshirishda ma'lum bir malaka va tergov organlarining moodiy texnik bazasi hamda xorij tajribasi muhim rol o'ynaydi. Demak, boshqa mamlakalarning ilg'or yutuqlaridan amaliy jarayonda foydalanish yoki ularni ilmiy darsliklarga kiritish har bir mamlakat tergov sohasi uchun ham foydadan yiroq bo'lmaydi.

Ikkinchidan, xorij tajribasini amaliyotga tatbiq qilish va uni o'rganishning o'zi kamlik qiladi. Shuning uchun ikki subyekt bevosita mazkur sohaga oid memorandum imzolashda, kadrlar ayirboshlab, ularning malakasini oshirishga qaratilgan o'quv kurslari tashkil qilishda, shu va shunga o'xshash ilmiy va tanqidiy yo'nalishdagi maqola va tezislarning o'rni beqiyos.

Endi bevosita subyektlarning tergov tizmi va tarkibiy qismlariga e'tibor qaratsak, O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bevosita bosh qomus hisoblangan “Konstitutsiya” va “Jinoyat kodeksi” hamda xalqaro huquqning umume'tirof qilingan normlariga tayanadi.

Jinoyat huquqi ikki bir – biridan mustaqil “umumiy va maxsus” bo‘limlardan tarkib topgan bo‘lib, birinchi qism jinoyat tushunchasi, predmeti, subyektlari, jinoyat huquqining oldiga qo‘ygan vazifalari, normalarning makon va zamonda amal qilishi, jazo tizmi hamda ularning turlari, voyaga yetmaganlarning javobgarligi, jinoyatni yengillashtiruvchi va o‘g‘irlashtiruvchi holatlar, javobgarlik va jazodan ozod qilish, sudlanganlikning huquqiy oqibati, tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi va boshqa bir qator masalalarni o‘z ichiga oladi.

Maxsus qism esa qanday ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat ekanligini, qanday usulda sodir qilinganligini, ularga qanday turdagi jazolar tayinlanishi mumkinligini va bir qancha boshqa masalalarni o‘z ichiga oladi. Mamlakatda demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda. Aynan shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo‘nalishiga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas.

Endi esa O‘zbekiston Respublikada tergov organlarining tuzilmasiga e‘tibor qaratsak, jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda tergov jarayonini olib borish vakolatiga ega bo‘lgan organning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi va vazifalardan kelib chiqib – “Jinoyat kodeksi”da mavjud moddalarni (302 moddadan tarkib topgan) normativ huquqiy hujjatlarga muvofiq tegishliligi bo‘yicha taqsimlangan. Tergov organlarining tashkiliy tuzilmasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida tergov jarayonini quyidagi organlarning tergovchilari amalga oshiradi :

1. Ichki ishlar vazirligi va uning tarkibiy qismlarida faoliyat yuritadigan tergovchilar;
2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va uning tarkibiy qismlarida faoliyat yuritadigan tergovchilar;
3. Davlat xavfsizlik xizmati va uning tarkibiy qismlarida faoliyat yuritadigan tergov mutaxassilari.

Yuqoridagi organlarning tergovchilari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat prosessual kodeksining 345- moddasi (Jinoyat ishlarning tergovga tegishliligi) ga asosan faoliyat yuritadi.

Ya’ni qisqacha aytadigan bo‘lsak, jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra taqsimlangan desak ham yangilashmagan bo‘lamiz. Bunda inson hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar, mansabdor shaxslarning jinoyat qilmishlari va tegishlilik bo‘yicha bir qancha murakkab jinoyatlarni tergov qilish prokuratura tergovchilari zimmasiga yuklatilgan.

Davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari esa mamlakat tinchlik va xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni hamda shu mazmundagi bir qator ishlarni tergov qilishadi. Ichki ishlar tergovchilari esa hayotimizda ko‘p uchraydigan qilmishlar va maishiy jinoyatlarni, shu bilan bir qatorda boshqa muhim qilmishlarni ham tergov qilish vakolatiga ega desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ha, yana bir muhim masala shuki, quyida keltirilgan asoslar bo‘yicha tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilmasdan ham bir dastlabki tergov organidan boshqa bir dastlabki tergov organiga jinoyat ishlari olib berilishi ham mumkin. Bunday huquqqa faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosarlari haqli bo‘lib, quyidagi asoslar talab etiladi:

- 1) agar jinoyat ishining tergovi tegishli bo‘lgan organ jinoyatni hisobga olishdan ilgari yashirgan bo‘lsa;

2) jinoyat ishining tergovi tegishli bo'lgan organning rahbari yoki rahbarning yaqin qarindoshi ish yuzasidan jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoxud fuqaroviy javobgar deb topilgan bo'lsa;

3) aybsizligi ayon bo'lgan shaxs ayblanuvchi tariqasida jalb etilganda yoki qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida oldindan bila turib qonunga xilof ravishda iltimosnoma qo'zg'atilganda;

4) dastlabki tergovni olib borishda qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayrinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlari qo'llanilganda;

5) tergovning natijalariga va ish bo'yicha qonuniy qaror qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarzda kodeks talablari buzilganda.

Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar bevosita respublika tergov organlari tuzilmasining nazariy qismi hisoblanadi. Keyingi o'rinda bevosita Rossiya Federatsiyasi tergov organlariga to'xtalib o'tsak, maqsadimizga yaqin kelgan bo'lamiz. Avvalo, federatsiyadagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizmiga kiradigan subyektlarni aniqlashtirsak va shu orqali tergov faoliyati bilan shug'ullanish vakolatiga ega bo'lgan organlarni oydinlashtirish oson kechadi.

Quyidagilar Rossiya Federatsiyasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizmiga kiradi:

- a) Prokuratura organlari
- b) Ichki ishlar organlari
- c) Bojxona organlari
- d) Tergov qo'mitasi
- e) Adliya organlari.

Bu organlarning barchasi mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqqa rioya qilishning kafolatidir.

Rossiya Federatsiyasida tergov jarayonlari "Jinoyat kodeksi" va Federal qonunlar asosida amalga oshiriladi hamda tergov jarayonida qonuniy huquqlar va erkinliklar ustuvor hisoblanadi.

Quyidagilar federatsiya hududida tergov faoliyati bilan shug'ullanish vakolatiga ega organlar jumlasiga kiradi :

- 1) Rossiya Federatsiyasi "Tergov" qo'mitasi
- 2) Ichki Ishlar Vazirligi tergov qo'mitasi
- 3) Federal Xavfsizlik Xizmati tergovchilari

Tergov jarayoning sifatli va samarali bo'lishi uchun federatsiya hududida asosan zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalaniladi. Bu esa jinoyatlarni tez ochishga, aybi bo'lmagan shaxsni javobgarlikka tortmaslikka qo'l keladi. Mamlakatda, "Tergov" qo'mitasi mustaqil subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Ikki mamlakat tergov organlarining asosiy qismlari va tuzilmalarini baholiqudrat aniqlashtirib oldik. Endi esa bevosita mavzuning asosiy qismi hisoblangan **O'zbekiston Respublikasi tergov organlari va Rossiya Federatsiyasi tergov organlarining xususiyatlari va o'ziga xos jihatlariga** urg'u beramiz.

Avvalo, ikki mamlakat tergov organlarining **o'xshash jihatlariga** to'xtalib o'tsak, ikki subyekt ham o'z oldiga bir maqsadni qo'ygan ya'ni, jinoyatlarni oldini olish ularni aniqlash va tergov jarayonini qonuniy prosessual tartibda o'tkazish hamda ushbu jinoiy ishni sudga taqdim qilishdan iborat. Bunga qo'shimcha qilib , fuqarolarni konstitutsiya va qonunlarga bo'ysunish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash ham ustuvor vazifasi sifatida qaraladi. Yana bir ham farqli va ham o'xshash tomoni bu –Prokuratura.

Birinchi bo'lib, uning o'xshash jihatiga e'tibor qaratsak, O'zbekiston Respublikasida ushbu organ bevosita tergov bilan shug'ullanadi va tahminan 50 dan ortiq jinoyatlarni tergov qiladi, Rossiya Federatsiyasida esa ushbu organ bevosita tergov bilan shug'ullanmaydi lekin tergov vakolatiga ega bo'lgan organlarning faoliyatidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Xo'sh qani bunda o'xshashlik dersiz, ha to'g'ri mulohaza qildingiz lekin aytganimzidek o'xshashlik mavjud bu esa quyidagicha yani O'zbekiston Respublikasida ham Prokuratura boshqa tergov subyektlarining faoliyatida qonunchilikka rioya qilishini nazorat qiladi. Rossiya Federatsiyasida prokuratura tergov faoliyati bilan bevosita shug'ullanmasligini subyektlar o'rtsaidagi bir kichik farq desak adashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari ikki davlat tergov organlarida ham xilma-xil uslublar va yangicha texnik vositalar bilan ish olib boriladi.

Tergov organlari bevosita mustaqil va qonunga muvofiq ish olib boriladi ularning ishiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasnodir. Shuningdek, ikki mamlakat organlarining ommaviy axborot vositalari bilan ishlash jarayoni ham bir xil va o'zaro hamjihatlikda ish olib boradi.

Rossiya tergov organlari xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi, bu esa ularning tajribasini va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida esa anchadan beri foydalanib kelinayotgan metod va bir qancha yondashuvlardan foydalanadi, aslida bu ham noto'g'ri strategiya emas, biroq zamon yangicha texnik vosita resurslarni talab qilyapti. O'zbekistonda tergov organlarining faoliyati asosan davlatning manfaatlariga xizmat qilyapti va bu bir tomondan qandaydir ma'noda to'g'ri hisoblanadi. Lekin tarozining ikki pallasi bor deyilganidek, ikkinchi tomoniga e'tibor bersak yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlar buzilgandek tuyuladi. Keling shu masalaga ikki tomonlama yechim beramiz. Davlat manfaatlar yuqori qo'yilgan holatdagi aksariyat jinoyatlar: davlat byudjetini talon - taroj qilish va mansab va vakolatidan foydalangan holatda korrupsion jinoyatlar sodir qilish hamda shunga o'xshash jinoyatlardir. Shu orqali tergov organlari shaxslarni qonunga rioya qilishga va jazo muqarrarlari haqidagi prinsiplarni o'rgatishga harakat qilishadi.

Natijada davlat manfaatlar yuqoriroq bo'ladi. Qolgan deyarli barcha holatlarda hattoki yuqoridagi jinoiy qilmishlarda ham shaxslarning huquqlari toptalmaydi va kamsitil olmaydi.

Rossiya Federatsiyasining ushbu sohadagi yana bir o'ziga xosligi shundaki, mamlakatning xalqaro huquqning subyekti sifatida xalqaro huquqqa ta'siri natijasida ularning tergov organlariga ham sezilar sezilmas tashqi omillarni ta'sirini kuzatishimiz mumkin. Ha albatta, o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Respublika tergov faoliyati bilan shug'ullanish vakolatiga ega organlar bir - birlari bilan kelishgan holda yagona tuzilma sifatida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov jarayonlarini olib borishlari mumkin. Birlashib turli uyushtirilgan tadbirlarni tashkil qilishlari mumkin va profilaktik ishlarni ham bir yagona qism sifatida mazmunli tashkil qila oladilar. Buning aksi sifatida Rossiya Federatsiyasi tergov organlari ba'zan turli ixtiloflarga borib turishadi va dilni xira qiladigan muammolar paydo bo'lib turadi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, ikki mamlakatning jinoyat qonunchiligi uchun asos bo'lgan manbalar turli xil. Xalqaro huquqning umume'tirof qilingan normalari respublika jinoyat huquqi uchun muhim qism hisoblansa, federatsiya qonunchiligida katta ahamiyat kasb qilmaydi.

Xulosa sifatida shuni bayon qilishim mumkinki, tergov organlari o'zaro bir - birlaridan farq qiladi, ammo ularning har biri o'z mamlakatlarining xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘ngi yillarda davlatlar orasidagi aloqalar har galgiga qaraganda ancha yaxshilangan va ushbu sohada ham mazmunli ishlar tashkil qilinyapti. Ushbu seminarlarda ikki mamlakat xodimlari chuqur kasbiy bilimlarga ega bo‘lishyapti.

Eng asosiy qilgan yakdil xulosam shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasida alohida “Tergov” qo‘mitasi tashkil qilinishi va u barcha huquni muhofaza qiluvchi organlardan mustaqil va faqat qonunga itoat qilishi, barcha jarayonlarni prokuratura organlari qonuniyligini o‘rganib bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rossiya Federatsiyasi tergov bo‘linmalari hamjihatlikni yanada oshirishsa ish hajmi va sifati yanada barqarorlashadi deb hisoblayman. Ikki subyekt ham tergov jarayonlariga yangi texnik uslub va resurlar kiritishsa, sohada xizmat qilayotgan xodimlarning vaqti tejalgan bo‘ladi. Jinoyatlarni tergov qilish strategiyasi mazmunan barcha davlar qonunchiligida bir xil. Mening asosiy takliflarimdan biri shuki, so‘nggi yillarda mamlakatlarda nashr qilinayotgan tergov sohasiga bag‘ishlangan ilmiy maqola, darslik va qo‘llanmalarni tarjima qilishga alohida yondashish kerak. Nafaqat o‘zbek tiliga balki respublika huquqshunoslari yozgan asarlarni rus tiliga tarjima qilinsa nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi.

Dastlabki tergovni olib borish jarayonlari ham bir mazmunga ega va bosqichlari jihatidan o‘zaro yaqin. Ikki davlatda ham jinoyat ishlarini har tomonlama tekshirish va dalillarni to‘plash jarayoni aniq tartibga solingan va prosessual huquq normalari bilan mustahkamlangan. Yana bir eng muhim masala shundaki, davlatlarning tuzilish shakli ham o‘zaro keskin farq qiladi. Bir so‘z bilan aytganda mamlakatlarning ma‘muriy hududiy tuzulishi bir tomonda unitar davlat, ikkinchi tomonda fedefrativ davlat. Garchi orasida farq katta bo‘lishiga qaramay, mamlakatlarning boshqaruv shakli azal-azaldan bir xil bo‘lib kelgan. Yana bir eng muhim xulosam shuki, davlatlar orasida oliy ta‘limga keng imkoniyatlar ochilsa, talabalar o‘zlari istagan ta‘lim muassasasida tahsil olishsa, ham ilmiy ham amaliy tajribalarni egallab kelajakda o‘z sohalari uchun muhim kadr bo‘lib yetishishadi. Buning uchun ikki tomon oliy ta‘lim dargohlari memorandum imzolashsa va barcha jihatlar shartnomaviy tartibga solinsa barcha uchun manfaatli bo‘lardi. So‘nggi so‘z bilan yakuniy xulosa qiladigan bo‘lsam, har ikki mamlakatdagi tergov organlarining tuzilishi, faoliyat usullari va muammolari o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Kelajakda bu tergov organlarining samaradorligini oshirish uchun yanada yaxshilash va modernizatsiya qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tushunchasi va tizmi: O‘zbekiston va xorij tajribasi – Lutfullayeva Feruza Boboqulova (TDYU akademik litsey katta o‘qituvchisi) Talqi va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali N11 son <https://doi.org/10.5281/zenodo.7299722>
2. Huquq tartibot organlari va sud tizmidagi o‘zgarishlar. O‘zbekiston nodavlat – notijorat tashkilotlar – Akadem.Ilm.Nashr 27-35 bet
3. Milliy xavfsizlik xizmati, prokuratura, ichki ishlar tergovchilari haqida – (Xushnud Xudoyberdiyev, yurist) – Xushnudbek.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994-yil 22- sentabr)
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat prosessual kodeksi
6. Rossiya Ichki ishlar vazirligi tizimida dastlabki tergov organlari faoliyatida YEITKS IIO imkoniyatlaridan foydalanish (A. A. Popov)